



## NASRIY ASAR BADIYYATI

**Umida Rasulova**

*Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti,  
f.f.d., prof.*

**Annotsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek nasridagi o'zgarishlar, ifoda tizimidagi yangiliklar muayyan asarlar tahlili vositasida yoritib boriladi.*

**Kalit so'zlar:** *nasr, badiiy, millat, ijod, tasvir*

**Аннотация:** *В данной статье по средством анализа конкретных произведений освещаются изменения в узбекской прозе, новации в системе выражения*

**Ключевые слова:** *проза, художественный, нация, творчество, изображение*

**Abstrakt** *In this article the changes in uzbek prose, innovations in the system of expression are highlighted by means of the analysis of specific works*

**Key words** *proze, art, nation, creation, image*

San'atkor so'z vositasida nafaqat inson zohiri-yu botini, balki milliy qiyofa, o'zlikni bus-butun, asosli, mantiqiy fikrlar bilan talqin etadi. Ijodkorlar so'zdan tejab-tergab, oqilona foydalanadi. Sqiq jumlar qatiga keng ma'no ko'lamini singdirib yuboradi. Asarlar tahlilida tig'iz, ammo teran ifoda, mantiqiy-izchil tasvir, falsafiy-estetik qarashlar ko'zga tashlanadi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ifoda usullarining turfaligi hissiy idrok quvvatini oshirgan. Badiiy obraz mohiyatini anglatishda psixologik, estetik xususiyatlar dalillangan.

Saj': Mayin shamol esar, o'rik gullari unsiz to'kilar, daraxtzor ostida maysalar ohista tebranar, ammo butun tabiat bir zum unsiz bo'lib qolgan, hamma-hammasi faqat mana shu dutor sadolari-yu qo'shiqni tinglagani uchun tinib qolgandek edi<sup>1</sup>.

Mazkur lavhada saj' peyzaj tasvirini tiniqlashtiradi. U hissiy bo'yoqdorlikni orttirib, ohang tovlanishini namoyon etadi. Mayin, unsiz, ohista kabi so'zlar metaforik tasvirni quyuqlashtirib, tabiat ne'matini timsol darajasiga ko'taradi. San'at sintezi qahramon sezimiga parallel berilib, olamu odam yaxlitligini asoslaydi.

Sifatlash san'ati:

Oppoq sochlari, oppoq soqoli, oppoq ko'ksini muzday qor zarralari qoplagan.

<sup>1</sup> Хошимов Ў. Сайланма. - Т. Шарқ. 1993. 130-6.





Oppoq sifati rang - tus tarzida namoyon bo'lib, tabiat in'omi qor inson shakli shamoyiliga muvofiqlashadi. Mazkur so'zga urg'u berilishida ta'kid ohangi kuchayib, obraz kechinma , tuyg'ularini sezdirishga qaratiladi. Portret tasvirida avval yuz qismi - soch, soqol , so'ng tana qismiga e'tibor qaratilib, nuroniy siymosiga chizgi beriladi. "O" unlisi ichki ohangni yuzaga keltirib, simvolik ifoda usulini yaqqol ko'rsatadi.

Husni ta'lil san'ati:

To'ng'ich chuchmomalar eng avval sukutga cho'mgan qabrston ustida ma'yus qo'ng'irog'ini chaladi. Bag'ri qon qizg'aldoqlar birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi<sup>2</sup>.

Muallif bahor fasli chizgilarini chuchmoma, lolaqizg'aldoq obrazlarida istifoda aylaydi. U marhumlar diyorida sukunatni qo'ng'iroq jarangi bilan pardalaydi. Tiriklik, yasharish falsafasi azalu abad sathiga jamlanadi. Qizg'aldoq (ol, qizil) timsolida qon so'ziga ishora berilib, bo'yoq quyushadi. Adib sokinlik maskanidagi nabotot qatlamini ruhoni hamda dunyoviy haqiqat ila uyg'unlashtiradi.

Mirkarim Osimning "Singan setor" qissasida o'xshatish san'ati qo'llanadi:

"Cho'llarni qoplagan chechaklar hididan mast bo'lgan bahor shamoli dadil qadam tashlab ketayotgan yigitga tegajoqlik qilayotgandek yaktagi etaklaridan tortqilar, yuzini siypalab, go'yo qulog'iga bir narsalar deb shivirlar edi."<sup>3</sup>

Fasl shukuhi, tarovati quruq, issiq makonga ham ta'sirini o'tkazadi. Shamol yigitga peshvoz kelib, uning kayfiyatiga monand ko'tarinkilik baxsh etadi. Borliqdagi yaratilqlar sassiz bir birini tinglab, tushunishida latif uyg'unlik yuzaga chiqadi.

Nosirlar tabiiy manzarani tasvirlashda ko'chma ma'noli so'zlardan, iboradan foydalanilgani kuzatiladi. Kun, fasl, biror tabiat hodisasi sodda, aniq bayon qilinadi. Peyzaj tasvirida badiiy vositalar – sifatlash, jonlantirish ham o'rinli qo'llanadi.

Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasida saj' qo'llanadi:

"Oldimda uyum-uyum kitob, darslik; tevaragimda bari yashash uchun ilm olayotgan kimsalar; tashqarida esa, hayot atalmish beqiyos mo'jiza: charaqlagan quyosh, tip-tiniq osmon, top-toza havo, ko'zni qamashtiruvchi atlas ko'ylaklar-barno qizlar, o'ynoqi favvoralar, xushnag'ma qushlar..."<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Хошимов Ў. Сайланма. - Т. Шарқ. 1993.97-6

<sup>3</sup> Осим М. Аждодларимиз фожеаси. Т.Адабиёт ва санъат нашриёти.1983.156.6

<sup>4</sup> Аъзам Э.Кечикаётган одам.Т.Шарқ.2002.14.6





Tasvirda jonli hayot manzarasi insonu tabiat holatini muvofiqlashtiradi. Ot turkumidagi so'zlar ichki ohangni hosil qilib, narsalar sifati, xususiyati hissiy samarani oshiradi. Ilm tolibi nigohida vaqt bilim olish yo hayotdan zavqlanishga sarflanishi kuzatiladi.

Adibning "Shoirning to'yi" qissasida o'xshatish kuzatiladi:

"Tiriklar beomon, tiriklar beshafqat, o'liklarga qiyin, o'liklar o'zini himoya qilolmaydi, ular nochor, qabrlaridan turib yoqangizga chang sololmaydi-hech qursa, shuni inobatga olib insof qilsak bo'lmasmi?"<sup>5</sup>

Hojiakbar Shayxovning "Ajdodlar xotirasi" qissasida ilmi tibning mikro xossalari bobidagi mulohazalar savol javob usulida taqdim etiladi:

"Siz xoynahoy odamning miyasi aslini olganda ko'p qavatli ombor ekanligini, uning qavatlari shaxsning rivojlanishi jarayonida informatsiya bilan to'lib borishini eshitgandirsiz? Mazkur informatsiya miyamizga genlarimiz orqali o'tadi.U kodlashtirilgan va hozircha odamzot uni o'qishni o'rganib ulgurmagan."<sup>6</sup>

Bu lavhalar genetika tizimidagi murakkabliklardan boxabar aylab odam shuuri, quvvai hofizasi, tush jarayoni borasidagi imkoniyatdan bahs bog'laydi. Kuchli zo'riqish, asabiylashish ma'lum muddat kishi xotirasini zaiflashtirishi, xotirjam onda miya tizimi tiniqlashib, kishidagi qobiliyat, intellektni namoyon etishi mumkin. Genetika mikroorganizmning belgi va xususiyatini, ko'nikmasini, tiriklik asrorini uqish ilmi sanaladi. Irsiy kasallik, xastalikka chidamlilik, biologik bog'liqlik, radiaktiv nurlarga qarshilik borasidagi tilsimlar genetika fanining asos masalasi bo'lib, bu fantastik qissa kompozitsiyasida ibtidoiy va zamonaviy kishining ijtimoiylashuv, madaniylashuv jarayonini qamrab olgan.

Tohir Malikning "Alvido...bolalik" qissasida bolalik davri manzarasida husni ta'lil san'ati kuzatiladi:

"Bolalik tasavvuri, bolalik sururi, yashash hamisha lazzatli, umr faqat yorug'likdan iborat degan tushuncha bolalik davri hatlab o'tilishi bilan birinchi qorong'ulikka, birinchi nohaqlikka... urilib, barcha sururlarni chilparchin qilib yuborgan edi."<sup>7</sup> Inson umrining pok, munavvar damlari, tiriklikning farahbaxsh davri obrazli ifodalanadi. Bolalik beg'uborlik pallasini, baxtu saodat yorug'likka mengzalib,

<sup>5</sup>Аъзам Э.Кечикаётган одам.336.б

<sup>6</sup>Шайхов.Х.Аждодлар хотираси.Т.Ёш гвардия.1986.174.б

<sup>7</sup>Малик.Т.Алвидо...болалик.Т.Ёш гвардия.1989.108.б





qorong'ulik zulmat tashrifidan ogoh aylaydi. Kontrast tasvirda achchiq haqiqatga ishora beradi. "Ota-onasiz o'sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi beimon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi."<sup>8</sup>

Insonning yorug' dunyoga, baxt tuyg'usini to'liq his etishida ota\ona suyanchiq bo'lib, ular tomonidan mehr tanqisligi burchdor mas'ulligini yodda saqlash kerak. Bu bolalar qalbida alamzadalik kurtaklanadi. Ularda hayotga muhabbat ishtiyoq o'rniga nafrat ustuvorlik qiladi. Nasriy asarda mualliflar saj' orqali ma'lum holat, tasvirni obrazli ifodalashga erishgan. Satrlarda bo'g'in tengligi yoxud bir oz farqlanishi kuzatiladi, voqelikni mufassal, ravshanroq ifodalanishi, ma'lumotni aniq, lo'nda berilishi epik asarga xos jihatni belgilaydi, tasavvur imkonini kengaytiradi.

Normurod Norqobilov "Qoyalar ham yig'laydi" qissasida saj' qo'llangani ma'lum bo'ladi.

"Otini sekinlata-sekinlata, o'girilib ko'chkiga, shovqindan cho'chib, archazorda g'uj bo'lib turgan suruvga, qozi atrofida aylanayotgan keksa otga, bag'ri kuygan archaga bir-bir boqib, asta yo'lga tushdi"<sup>9</sup>.

Mazkur motivdagi ot turkumi (ko'chkiga, suruvga, otga, archaga, yo'lga) ichki tadrijni bosichma bosqich ko'rsatib, ohangdoshlikni yuzaga chiqaradi. Bu manzaraning ta'sirli, kuchli ifodalanishiga xizmat qiladi. Qahramon holatiga keksa ot, bag'ri kuygan archa birikmalari parallel keltirilib, ruhiyatdagi iztirob, alamni his ettirishga imkon beradi. Inson qalbidagi dardni yengish, umr sarhisobi uchun yo'lga tanho chiqishga qaror qiladi.

"Quyosh o'sha-o'sha mo'l-ko'l nur sochar, oppoq bir bulut kunbotishdagi qoya bag'riga soya tashlab, ohista suzib borar, nevaralari allaqachon eshakko'pkarini tugallab, hovli sahnida chopqillashib yurishar, ayollar negadir o'rmak tepasida g'uj bo'lib turishar, kampiri esa, bir qo'lida urchuq, ikkinchi qo'li bilan belini tutganча ular boshida tik qotgan, chamasi kelinlariga nimanidir uqtirmoqda edi"<sup>10</sup>.

Quyosh, oq bulut borliqning bo'lak, qismlari muvozanatini asramoqda. Kunbotishdagi qoya ramziy ma'no kasb etib, ota dardiga soya ishora beradi. Inson bolalari, ayollar esa kundalik tashvish, yumushlar bilan band. Sochar, borar, yurishar, turishar kabi fe'llar ichki qofiyani ta'minlab, estetik ta'sir quvvatini oshiradi.

<sup>8</sup>Малик Т.Алвидо....Т.Ёш гвардия.1989.47.6

<sup>9</sup>Норқобилов Н.Тоғдаги ёлғиз одам.Т.Шарқ.2011.252.6

<sup>10</sup>Норқобилов Н.Тоғдаги ёлғиз одам.Т.Шарқ.2007.255.6





Shoyim Bo'taev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida saj' qo'llanadi:

"Sochila-sochila, to'kila-to'kila uyulgan tuproq... ana shu-baland tepalik!"<sup>11</sup>

Adib to'rt unsurning biri bo'lgan tuproq, undan bunyod tepalikni obrazli tasvirlashda ravish qo'llanilib, so'z takrori ohangni yuzaga chiqargan. Mayda hosilasidan katta paydo bo'lganiday, kishi ham mehnatu shijoati bilan asta maqsadga erishib boradi. "Bundan ichkaridagilarning toqatlari toq bo'lar, malollanishar, g'azablanishar, bilib ko'rib tursalar-da nega ketmaydi, deb bir-birlariga qarashar, ayolning bu holati...go'yo ularning mol-mulklariga tahdid solayotganday, molikonalarining ko'rkiga putur yetkazayotganday bo'lardi"<sup>12</sup>.

Tasvirda bo'lar, malollanishar, g'azablanishar, qarashar fe'llari ichki ohangni yuzaga keltiradi. Inson qadri, izzatining yo'qolishiga kundalik vaziyat, holat sabab bo'ladi. Nazoratchi ayoli ro'zg'oridan qiynalgani, erining loqaydligi bois qo'shnilar oldida qadrsizlanib boradi. Kishilardagi achinish hissi g'azabga aylanayotganini anglamagan ayol nochor, tushkun holda tahqirlanib qolaveradi.

Ijodkor g'oyasi, estetik qarashlari xarakter mohiyatining qay darajada yoritilganiga, o'quvchining qabul qilishi, xarakter zimmasidagi vazifani to'g'ri aniqlay olishiga ham bog'liq. Zero, o'quvchi qahramon holatini ko'radi, eshitadi, undagi masrurlik yo mahzunlikni his qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xo'shimov Y. Сайланма. - Т. Шарқ. 1993. 130, 97-6.
2. Осим М. Аждодларимиз фожеаси. Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. 156.6
3. Аъзам Э. Кечикаётган одам. Т. Шарқ. 2002. 14., 336-6
4. Шайхов.Х. Аждодлар хотираси. Т. Ёш гвардия. 1986. 174.6
5. Малик.Т. Алвидо...болалик. Т. Ёш гвардия. 1989. 108, 47-6
6. Норқобилов Н. Тоғдаги ёлғиз одам. Т. Шарқ. 2011. 252, 255-6
7. Бўтаев Ш. Ҳаёт. Шарқ. 2000.3 68., 377-6
8. Rasulova, U. (2020). NOVELTIES IN POETICS OF TALES. Theoretical & Applied Science, (1), 220-224.
9. Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.

<sup>11</sup> Бўтаев Ш.Ҳаёт.Шарқ.2000.368.6

<sup>12</sup>Бўтаев.Ш.Ҳаёт.2000.377. 6

